**Annotatsiya.** Mazkur maqolada destinatsiya tushunchasi va geoaxborot tizimlarining (GAT) mazmun-mohiyati hamda ularning turizm sohasida, xususan ziyorat turizmida qo'llanilish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, GATning ta'rifi, funksional xususiyatlari va turistik infratuzilmani samarali boshqarishdagi ahamiyati ilmiy asosda bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** GAT, turizm, ziyorat turizmi, muqaddas qadamjo, axborot texnologiyalari, internet tarmoqlari.

**Abstract.** This article examines the concept of tourism destination and the essence of Geographic Information Systems (GIS), as well as their application in the tourism sector, particularly in pilgrimage tourism. The study provides a scientific explanation of the definition of GIS, its functional features, and its role in the effective management of tourism infrastructure.

**Key words:** GIS, tourism, pilgrimage tourism, sacred site, information technologies, internet.

**Аннотация.** В данной статье раскрываются сущность понятия туристской дестинации и содержание географических информационных систем (ГИС), а также их применение в сфере туризма, в частности в паломническом туризме. Представлены научно обоснованные сведения об определении ГИС, их функциональных возможностях и значении в эффективном управлении туристской инфраструктурой.

**Ключевые слова:** ГИС, туризм, паломнический туризм, священное место, информационные технологии, интернет.

KIRISH

Mamlakatimizda turizm faoliyatini rivojlantirishning yangi davri boshlandi. Binobarin, ma'lum darajada tajribalar to'plandi va endilikda ushbu tajribani tahlil qilish ehtiyoji tug'ilmoqda. Jahon turizm industriyasi faoliyati tajribasining ilg'or jihatlarini, iste'molchilar xohish-istaklarini marketing tadqiqotlari asosida o'rganishni, turistik mahsulotlarni shakllantirish va ularni taqdim etish borasidagi amaliy tadbirlar natijalarini batafsil tahlil qilish zarur bo'lmoqda. Dunyoda hech bir inson bir-biriga aynan o'xshamagani kabi, hech bir joy ham boshqasini takrorlamaydi. Har bir davlat, mintaq, shahar va hudud o'zining joylashuvi hamda turistik jozibadorligi bilan ajralib turadi. Aynan shu masalada turizmdestinatsiya tushunchasi yuzaga keladi. Turistik destinatsiya lotincha "destino" so'zidan olingan bo'lib, joylashgan o'rin, uchrashuv joyi, manzil ma'nolarini anglatadi. Bu esa turistik joylarning u yoki bu jihatdan farqi va o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Har bir joyning va hududning turistik salohiyatini tadqiq etishda, ularning rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda samarali o'zlashtirish jarayonida mutaxassislar turistik resurslarning joylashgan o'rne va jozibadorligini oshiruvchi jihatlarni aniqlay olishi lozim. Buning uchun turistik destinatsiyani chuqur bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm faoliyati – ijtimoiy hodisa sifatida ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Demografik nuqtai nazardan u aholining bir hududdan boshqa hududga vaqtinchalik harakatini anglatadi, iqtisodiy nuqtai nazardan aholi muayyan qismining harakati natijasida iqtisodiy ehtiyojlarning yuzaga kelishi, ularning qondirilishi hamda keng qamrovli iqtisodiy jarayonlarning shakllanishini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, turizm – bu sayohat qilish jarayonida yuz beruvchi voqea va hodisalarning o'zaro ta'siridan iborat munosabatlar majmuasidir.



Global iqtisodiy va innovatsion o'zgarishlar sharoitida ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini ochib berish hamda uni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan ushbu masalaning metodologik-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. XXI-asrga kelib axborot sohasining jadal rivojlanishi kompyuter texnologiyalarining yaratilishi va inson hayotining turli sohalarini keng miqyosda raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirdi. Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan ma'lumotlar qisqa fursatlarda keng jamoatchilikka yetib borishi tabiiy jarayonga aylandi.

Bugungi kunda turizm turlarida, xususan ziyorat turizmida, sayyohlar turizm yo'nalishlarini tanlash, tashrif buyuriladigan hududlar to'g'risida ma'lumot olish va muqobil yo'nalishlarni aniqlash uchun internet va dinamik xaritalardan keng foydalanmoqda. Turistik axborot tizimlari va veb-turistik marshrutlar kabi joylashuvga asoslangan texnologiyalar sayyohlik sanoatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Internet va mobil aloqa texnologiyalarining keng rivojlanishi natijasida ko'plab mamlakatlarda turizm sohasida GIS asosida tayyorlangan yo'nalish va xaritalardan foydalanish ko'lami izchil kengayib bormoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompyuterlashtirilgan dunyo va yalpi axborotlashtirilgan global tizimning shakllanishi millatlar, xalqlar hamda butun insoniyat taraqqiyotini o'zaro chambarchas bog'lab qo'ydi. Hozirgi kunda axborotning ishonchligi, aniqligi, tezkorligi, samaradorligi, ko'p qirraliligi hamda uni qayta ishlash va uzatishning yuqori tezligi kabi mezonlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Axborot tizimlari bugungi kunda turizm, mehmonxona xo'jaligi, biznes, maishiy va kommunal xizmatlar kabi sohalarida muhim o'rin tutadi.

Germaniyalik iqtisodchi Natan Mayer Rotshildning "Kim ma'lumotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi" degan mashhur fikri axborotning strategik ahamiyatini yaqqol ifodalaydi. Vaqt o'tishi bilan ushbu yondashuv "Geografik axborot tizimi" (GAT) tushunchasi shakllanishiga zamin yaratdi. Chunki GAT tadqiqotlari nafaqat muayyan hududiy joylashuvni, balki turli tavsiflovchi xususiyatlarga ega bo'lgan obyekt va hodisalarni ham qamrab oladi<sup>1</sup>.

Geoaxborot tizimlari (GAT, xalqaro amaliyotda GIS atamasi qo'llaniladi) XX asrning 60-yillaridan boshlab rivojlana boshlagan bo'lib, ularning jadal taraqqiyoti 1990-yillarga to'g'ri keladi. Bu jarayon, avvalo, kompyuter texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki GISlar 1960-yillarning o'rtalarida Kanada, AQSH va Shvetsiyada tabiiy resurslarni o'rganish maqsadida yaratilgan. Hozirgi kunda esa sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyot, siyosatshunoslik, ekologiya, tabiiy resurslarni boshqarish va muhofaza qilish, kadastr, fan va ta'lim sohalarida minglab GIS dasturlari qo'llanilmoqda<sup>1</sup>. Oddiy ta'rif bilan aytganda, GIS — bu tabiat va jamiyat obyektlari hamda hodisalari haqidagi topografik, geodezik, yer va suv resurslariga oid kartografik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, kompyuter xotirasida saqlash, yangilash va tahlil qilishni ta'minlovchi avtomatlashtirilgan apparat-dasturiy kompleksdir.

Mashhur rus olimi V.S. Tikunov GATni quyidagicha ta'riflaydi: "GAT — bu ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, qayta ishlash, baholash, tasvirlash va tarqatishni amalga oshiradigan hamda ular asosida yangi axborot va bilimlarni shakllantirish imkonini beradigan interaktiv tizimdir"<sup>1</sup>. Hozirgi kunga kelib GATning 20 dan ortiq ilmiy ta'rifi mavjud bo'lib, ularning har biri tizimning muayyan jihatlarini yoritadi. Barcha GISlarda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, yangilash va tahlil qilish jarayonlari maxsus dasturiy vositalar va texnik qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Demak, GIS turli usullar bilan to'plangan tabiiy va ijtimoiy obyektlar haqidagi keng qamrovli ma'lumotlar bazasiga tayanuvchi rivojlangan axborot tizimi hisoblanadi.

Geografiya va kartografiya sohalarida geoobyektlarning o'zaro bog'liqligini baholash, sonli metodlardan foydalanish yo'nalishida AQSH, Kanada, Angliya va Shvetsiya olimlari — U. Garrison (William Garrison), T. Xagerstrand (Torsten Hägerstrand), G. Makkarti (Harold McCarty), I. Makxarg (Ian McHarg) kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Geoinformatikaning shakllanishi Kanada GISining yaratilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon XX asrning 60-yillariga borib taqaladi va hozirgi kunga qadar izchil rivojlantirib kelinmoqda. Dastlabki GAT tizimlari fazoviy taqsimlangan ma'lumotlar bilan ishlashga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik Yevropa va Janubiy Amerikada ham kartografik ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash va printerlar orqali chop etish imkonini beruvchi funksional tizimlar yaratildi.

Respublikamizda ziyoratgohlar turli idoralar tasarrufida faoliyat yuritib kelganligi sababli ularni yagona reyestr asosida tizimlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Amaldagi qonunchilikda "ziyoratgoh" atamasi alohida normativ tushuncha sifatida mustahkamlanmagan bo'lsa-da, ular "diqqatga sazovor joylar" sifatida e'tirof etilgan va muayyan huquqiy asosga ega. Mazkur tadqiqot doirasida sohani yanada tizimli boshqarish va rivojlantirish maqsadida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu, o'z navbatida, yurtimizda ziyorat turizmining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



Ziyorat turizmi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, uning takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy modeli hamda integratsiyalashgan marketing konsepsiyasi nazariy-metodologik jihatdan asoslandi. Shuningdek, ziyorat turistik klasterini shakllantirish bosqichlari ishlab chiqildi. "Turizm", "Ziyorat turizmi" va "Diniy turizm" tushunchalariga berilgan ilmiy ta'riflar talab va taklif nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning zamonaviy modelini shakllantirish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu modelga ko'ra, turistik bozor mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, xalqaro hamkorlikni kengaytiradi hamda investitsiya va kapital oqimini faollashtirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda turistik xizmatlar asosan xususiy va tijorat subyektlari tomonidan ko'rsatiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratilishi turizmning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish, axborot-reklama faoliyatini rivojlantirish hamda ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish kabi yo'nalishlar turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan turizmni rivojlantirishning tashkiliy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ziyorat turizmini rivojlantirishda geoaxborot tizimlaridan (GAT) foydalanishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va amaliy jihatlarini takomillashtirish maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, institutsional va funksional yondashuvlar uyg'unligiga asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday mamlakatda turizmning rivojlanishi, eng avvalo, ushbu sohaga nisbatan davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning samaradorligiga bog'liq. Davlat turistik infratuzilmaning shakllanishi va barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, ya'ni me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashtiradi, turizm va uning alohida yo'nalishlarini rag'batlantirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshiradi, turizm subyektlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini ta'minlaydi, xizmat ko'rsatish bozorini tartibga soladi hamda turistlar huquq va manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

Turizm industriyasida innovatsion jarayonlar bevosita axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Jahon iqtisodiyotida axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklar turizmni innovatsion rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sayyohlik biznesi bugungi kunda axborot logistikasining ilg'or tizimlarini amaliyotga faol tatbiq etish orqali barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

Yurtimizda turizm mahsulotlarining xorijiy iste'molchilari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijalariga ko'ra, potensial tashqi iste'molchilar mamlakatimizning turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni asosan turizm agentliklari va byurolari, shuningdek, shaxsiy tavsiyalar orqali olmoqda. Mazkur holat ziyorat turizmi bozorida zamonaviy analitik-axborot tizimlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Milliy turizm bozorlarida marketing axborot tizimi strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, tartibga solish, baholash va samarali kanallar orqali tarqatishni ta'minlaydigan doimiy va tizimli resurslar hamda usullar majmuasidir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "ziyosat turizmi" tushunchasini talab va taklif uyg'unligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish uning tarmoqlararo majmua negizida shakllanadigan ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatidagi mohiyatini to'liqroq yoritadi. Jahon turizm amaliyotida musulmonlarning ziyorat qilish, diniy ibodatlarini ado etish (haj va umra), ma'naviy-ma'rifiy maqsadlar hamda boshqa sabablar bilan safarga chiqishi sayyohlik sohasida maxsus yondashuv va standartlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Shu asosda ziyorat turizmi, islomiy turizm, diniy turizm, halol turizm kabi atamalar ilmiy va amaliy muomalaga kiritilgan.

Kuzatuvlar natijalariga ko'ra, milliy ziyorat turizmi brendini jahon sayyohlik bozorlariga olib chiqish masalalari yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi. Shu munosabat bilan "Ziyarah tourism" brendini shakllantirish va uning konseptual tamoyillarini ishlab chiqish orqali O'zbekistonning boy madaniy va ma'naviy merosi, me'moriy obidalarini hamda tarixiy yodgorliklarini xalqaro turistik maydonda faol targ'ib etish imkoniyatlari kengayadi.

"Ziyarah tourism" brendini shakllantirish ziyorat turizmi, diniy-ma'rifiy, ta'lim va madaniyat yo'nalishlarida xalqlar va dinlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, savdo va investitsiya sohalarida qulay muhit yaratish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqot markazlari hamkorligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Jahon iqtisodiyotida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida “Ziyarah tourism” brendini yaratish va integratsiyalashgan marketing konsepsiyasidan samarali foydalanish orqali xalqaro bozorlardagi imijni mustahkamlash hamda milliy turizm ulushini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Mamlakatimizda turizm faoliyatiga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ustuvor davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Soha rivoji uchun zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratildi, muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va bu jarayon izchil davom etmoqda. Turizmni yangi bosqichga olib chiqish hamda yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy zamin shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari turizm sohasining tizimli rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Davlatning turizm sohasidagi siyosati uning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlatning turizm sohasidagi siyosati — bu turizm industriyasini va turizm bozori subyektlarini (turoperatorlar va turagentlarni) rivojlantirish, fuqarolarga ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini oshirish hamda mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan kompleks faoliyatdir.

Turizm siyosati respublikaning barcha hududlarida amalga oshiriladi. Xususan, mintaqalar darajasida turizm salohiyatidan samarali foydalanish, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash hamda turizm va mintaqa iqtisodiyoti o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlatning turizm siyosati — bu xalq xo'jaligi kompleksini rivojlantirish va aniq maqsadlarga erishish uchun turizm sohasi faoliyatiga davlat ta'sirining shakllari, usullari hamda yo'nalishlari majmuasidan iboratdir.

Ma'lumki, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2020-yilda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlagan edi. Ta'kidlanishicha, yurtimizda 8 200 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning 500 tasi turizm marshrutlariga kiritilgan [1]. Bu esa mavjud salohiyatdan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Samarqand viloyati turistik imkoniyatlarga nihoyatda boy hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda 1 851 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning muayyan qismi ziyorat turizmi yo'nalishida samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Mazkur salohiyatdan oqilona foydalanish hududiy rivojlanishga hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan madaniy meros va arxitektura obyektlari sonini 800 taga yetkazish hamda ularning holatini yaxshilash vazifasi belgilangan.

Ushbu strategik vazifani samarali amalga oshirishda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizdagi muqaddas qadamjolarini obod qilish, infratuzilmasini yaxshilash, xorijiy va mahalliy ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ziyorat turizmi deganda turli din vakillarining o'z dinidagi muqaddas maskanlarga ziyorat maqsadida safar qilishi tushuniladi. Muqaddas joylarning obodonligi, tozaligi, qulayligi va infratuzilma bilan ta'minlanganligi ziyoratchilar oqimining ortishiga hamda sohaning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi paytda qo'llanilish ko'lamli kengligi jihatidan GIS (Geoaxborot tizimi)ning o'rni beqiyosdir. U turizm, navigatsiya, transport, qurilish, geologiya, harbiy soha, iqtisodiyot, ekologiya va boshqa ko'plab yo'nalishlarda keng qo'llanilmoqda. GAT yer tuzish, turli kadastr tizimlari, kartografiya va geodeziya sohalarida ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki katta hajmdagi statistik, fazoviy, matnli va grafik ma'lumotlarni qayta ishlash hamda vizual tasvirlash jarayonlari zamonaviy GIS texnologiyalarisiz samarali amalga oshirilmaydi.

GATning asosiy xususiyatlariga fazoviy tahlil imkoniyati, ma'lumotlar tuzilmasining tizimliliigi, amaliy yo'naltirilganligi, xaritalash va geologik o'rganish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashi, tizimli yondashuvni ta'minlashi, moslashuvchanligi hamda ko'p variantli masalalarni hal qilish imkoniyati kiradi. Shuningdek, muhim parametrlarni tavsiflovchi geoaxborotlarni chuqur tahlil qilish imkoniyati ham uning ustun jihatlaridan biridir.

Axborot texnologiyalarini joriy etishning yuqori samaradorligi ayniqsa turizm sohasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar turizm infratuzilmasini boshqarish va marketing faoliyatini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ziyorat maqsadida safarga chiqqan har bir turist avvalo tashrif buyuradigan manzili haqida to'liq va ishonchli ma'lumotga ega bo'lishni istaydi.

GIS turizm sohasida quyidagi vazifalarni samarali bajaradi:

- turistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisobotini yuritish;
- sayyohlik marshrutlarini ro'yxatga olish va tahlil qilish;
- sayyohlar oqimini monitoring qilish;
- hududiy rivojlanishni rejalashtirish;
- sayohatchilarga dolzarb va batafsil ma'lumotlarni taqdim etish;
- kichik turistik subyektlarga o'z xizmatlarini arzon va samarali targ'ib qilish imkonini yaratish;



- mobil GIS orqali ma'lumotlarni tezkor tarqatish;
- turizm bozorining ishtirokchilari o'rtasida samarali aloqa o'rnatish;
- marketing va kommunikatsiya kanallarini diversifikatsiya qilish;
- multimedia marketing materiallarini yig'ish va qayta ishlash.

Turizmda GIS texnologiyalarining keng tarqalishi ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va institutsional omillar bilan chambarchas bog'liq. GIS o'z-o'zicha yangi turistik mahsulot yaratmaydi, biroq uni ijtimoiy, institutsional va madaniy omillar bilan uyg'unlashtirish orqali yangi xizmatlar, boshqaruv usullari va bozor imkoniyatlarini shakllantirish mumkin.

GIS tizim sifatida to'rtta asosiy elementdan iborat: kompyuter (apparat vositalari), kompyuterda ishlatiladigan dasturlar (GIS dasturi), tahlil qilinadigan ma'lumotlar hamda ushbu uch elementni boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi foydalanuvchi — ya'ni inson omili.

Bunday kompyuterlarda operativ xotira hajmi kamida 8–16 Gb bo'lishi maqsadga muvofiq, yirik hajmdagi fazoviy ma'lumotlar bilan ishlashda esa 32 Gb va undan yuqori ko'rsatkichlar tavsiya etiladi. Qattiq disk hajmi kamida 500 Gb yoki 1 Tb bo'lishi zarur, chunki zamonaviy GIS loyihalari katta hajmdagi grafik va fazoviy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Oldingi davrlarda 20 Gb hajm ham yetarli hisoblangan bo'lsa-da, bugungi kunda bunday hajm amaliy jihatdan yetarli emas. Ma'lumotlarni zaxiralash va ko'chirish uchun tashqi xotira qurilmalari yoki bulutli saqlash texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Protsessorga maxsus yuqori talablar qo'yilmasa-da, ko'p yadroli va yuqori tezlikdagi protsessorlar tasvirlarni tezkor qayta ishlash va vizualizatsiya qilish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi. Videoadapter zamonaviy grafik imkoniyatlarga ega bo'lishi, tanlangan monitor rejimida barqaror ishlashni ta'minlashi zarur. Monitor GIS bilan ishlashda muhim qurilma hisoblanadi, chunki barcha grafik tasvirlar ekranda aks ettiriladi. Shu sababli grafik tasvirlar bilan ishlovchi mutaxassislar monitor tanlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Amaliyotda 19–24 dyuymli monitorlardan foydalanish qulay hisoblanadi. Ekran aniqligi kamida 1280×1024 yoki undan yuqori bo'lishi tavsiya etiladi. Rang chuqurligi 16–32 bit bo'lganda tasvir sifati yanada yaxshilanadi. Monitoring yangilanish chastotasi 75–85 Gs dan kam bo'lmashligi ko'z salomatligi uchun muhimdir.

Tayyorgarlik bosqichida asosiy vazifa grafik yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni raqamli shaklga o'tkazishdan iborat. Hozirgi vaqtda grafik axborotni raqamlashtirishning uchta asosiy usuli mavjud: nuqtali (digitallashtirish), chiziqli va skanerli usullar. Nuqtali usulda planshet orqali obyektlarni raqamlashtirish jarayoni digitalizatsiya (inglizcha "digit" — raqam) deb ataladi. Qo'lda yoki chiziqli usulda raqamlashtirish jarayonida ma'lumotlar oldindan saralanadi, turli plan, karta va chizmalar maxsus tayyorgarlik asosida tizimga kiritiladi.

Planshetning ishchi yuzasida o'zaro perpendikulyar joylashgan o'tkazgichlar to'r shaklida joylashgan bo'lib, har bir o'tkazgichga ma'lum kodli signal uzatiladi. Vizir yoki ko'rsatkich yordamida induktiv kontur orqali ushbu signal qabul qilinadi. Digitayzerning elektron sxemasi o'tkazgichlar orqali elektr impulslarini uzatadi, operator esa sichqoncha yoki ko'rsatkich yordamida tasvirdagi kerakli nuqtani belgilab, koordinatalarni aniqlaydi. Har bir digitayzer o'z koordinatalar tizimiga ega bo'lib, obyektning X va Y koordinatalari indikator orqali aniqlanadi.

Egri chiziqlar sinik bo'laklarga ajratilib raqamlashtiriladi, to'g'ri chiziqlar esa boshlang'ich va yakuniy nuqtalari belgilanib, ular orasida avtomatik ravishda to'g'ri chiziqli hosil qilinadi. Zamonaviy digitayzer modellari 0,1 mm aniqlikda koordinatalarni aniqlash imkonini beradi. Akustik prinsip asosida ishlaydigan digitayzerlarda ko'rsatkich uchiga o'rnatilgan datchik uchqun chiqaradi, planshetga o'rnatilgan sezgir mikrofonlar esa signalni qabul qilib, vaqt farqiga ko'ra nuqtaning koordinatalarini aniqlaydi.

Nuqtali prinsip asosida ishlovchi digitayzerlarning aksariyati mantiqiy menyular bilan jihozlangan bo'lib, operatorga har bir nuqtaga tegishli atribut ma'lumotlarini birlashtirish imkonini beradi (masalan, yer uchastkasining turi yoki toifasi). Ko'plab qurilmalar raqamlashtirish aniqligini oshirish maqsadida lupa, aniqlashtiruvchi ko'rsatkichlar va yoritilgan belgilar bilan ta'minlangan.

Aniqlangan koordinatalar va atribut ma'lumotlari to'g'ridan-to'g'ri kompyuter xotirasiga yoki tashqi ma'lumot saqlash qurilmalariga yoziladi. Qo'lda raqamlashtirish texnologiyasi ma'lum darajada mehnat talab qilsa-da, yuqori aniqlik va nazorat imkoniyati bilan ajralib turadi hamda ko'plab amaliy vazifalarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

1. Raqamlashning aniqligi juda yuqori (0,05 mm gacha).
2. Tasvirni qismlarga ajratish imkoniyati mavjud bo'lib, bu mavzuli xaritalar tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.
3. Eski va qisman shikastlangan plan-kartografik materiallar bilan ham ishlash imkoniyati mavjud.
4. Tezkor ravishda vektor shaklidagi axborot olinadi va undan kompyuter dasturlarida bevosita foydalanish mumkin.

5. Usul nisbatan arzon va amaliy jihatdan qulay hisoblanadi.

Qo'lda raqamlashtirish jarayonida egri va to'g'ri chiziqlar operator tomonidan boshlang'ich nuqtadan boshlab oxirgi nuqtasigacha yoki boshqa chiziqli bilan tutashgan joyigacha ketma-ket belgilanadi. Keyingi chiziqlarni chizish uchun ko'rsatkich qayta o'rnatiladi.



Tasvirni avtomatik o'qish, ya'ni uni raqamli ko'rinishga o'tkazish elektron skaner qurilmalari yordamida amalga oshiriladi. Bunday uskuna skaner deb ataladi. Skanerlarning planshetli, rolikli va barabanli turlari mavjud. Ularning ishlash prinsipi tasvirni qatorma-qator o'qish asosida amalga oshadi. Qator kengligi taxminan 5 mkm ni tashkil etadi. Skaner grafikli hujjat tasvirini ketma-ket qatorda joylashtirib, ikki o'lchovli fazoni bir o'lchovli signallar ketma-ketligiga aylantiradi.

Barabanli skanerlarda o'qilayotgan tasvir aylanuvchi barabanga mahkamlanadi. Fotoko'paytiruvchi element va registrator koordinatalari bilan bog'langan fotogolovka tasvirni o'qiydi. Elektron tizim impulsi ikkilamchi kodda qabul qilinadi: tasvirning oq qismi — 0, qora qismi esa — 1 sifatida kodlanadi.

Skanerlar aniqlik darajasi (tiniqligi) bo'yicha farqlanadi. Bu ko'rsatkich tasvirning har bir dyumiga to'g'ri keladigan nuqtalar soni (dpi) bilan belgilanadi. Amaliyotda 600–1200 dpi aniqlikdagi skanerlar yetarli sifatni ta'minlaydi. Hozirgi kunda A4 dan A0 formatgacha bo'lgan planshetli skanerlarning turli modellari ishlab chiqarilmoqda.

Planshetli skanerlarda tasvir shisha yuzaga joylashtiriladi va uning ostida joylashgan kareta (harakatlanuvchi mexanizm) nur uzatuvchi hamda qabul qiluvchi elementlar yordamida tasvirni qatorma-qator o'qiydi. Qabul qiluvchi qurilma qaytarilgan nurni kodlaydi. Skanerlash tugagach, tasvir kompyuter monitorida aks ettiriladi, uni tahrirlash, chop etish yoki tashqi xotira qurilmalarida saqlash mumkin.

Roqli skanerlarda tasvir roliklar yordamida harakatlantiriladi va qo'zg'almas nur manbai orqali o'qiladi. Planshetli va rolikli skanerlar nisbatan arzon va keng tarqalgan bo'lib, ularni Contex, Vidar, Scangraphics, Hewlett Packard, Microtec va boshqa kompaniyalar ishlab chiqarmoqda.

Tasvirni nashr qilish jarayoni ham GIS tizimining muhim bosqichlaridan biridir. Elektron hisoblash mashinalari (EHM) yordamida tasvirni avtomatik chop etish imkoniyatlari dastlab alifbo-raqamli bosma qurilmalar orqali amalga oshirilgan. Bunda harflar oddiy yozuv mashinkasi kabi bosilgan, biroq tasvirni ifodalash uchun kodlash usulidan foydalanilgan. Tasvirning to'q joylari qalinroq belgilar bilan, och joylari esa yengilroq belgilar yoki maxsus xizmat belgilar bilan ifodalangan. Bu usullar keyinchalik zamonaviy grafik printer va plotterlar yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Geoaxborot tizimlari (GAT) turizm sohasida, xususan ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotlashgan zamonaviy jamiyat sharoitida turizmni GATsiz tasavvur etish qiyin. Turizmni boshqarish organlari hamda sayyohlik kompaniyalari faoliyatida axborot texnologiyalaridan tizimli foydalanish sayyohlik biznesining barqaror rivojlanishiga va ziyoratchilar oqimining ortishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda turistik tashkilotlar o'rtasida yagona ma'lumot almashish tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Bunday tizim orqali me'yoriy-huquqiy hujjatlar, hisobotlar va boshqa axborotlarni tezkor hamda samarali almashish imkoniyati yaratiladi. Turizmga GATdan foydalanishni kengaytirish, xususan ziyorat turizmi salohiyatini oshirish maqsadida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarning 3D formatdagi virtual tur dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur dastur orqali ziyoratchilar tashrif buyurmoqchi bo'lgan maskanlar haqida oldindan batafsil ma'lumot olish hamda virtual sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda respublika bo'ylab masjidlar joylashuvini ko'rsatuvchi "Masjid Finder Uzbekistan" mobil ilovasi faoliyat yuritmoqda. Shu kabi yurtimizdagi aziz-avliyolar va allomalar dafn etilgan muqaddas ziyoratgohlar manzillari haqida ma'lumot beruvchi, interaktiv xaritalar asosida ishlovchi mobil ilovalarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday ilovalarni ishlab chiqishda GAT imkoniyatlaridan to'liq foydalanish ziyorat turizmi bilan tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Ziyorat turizmining murakkab va ko'p qirrali xususiyati uni boshqarishda tizimli yondashuvni talab etadi. Shu bois mazkur sohani shakllantirish va takomillashtirish jarayonida boshqaruv nazariyasi hamda tizimlar yondashuvini inobatga olish muhimdir.

Ziyorat turizmi bozorini qo'llab-quvvatlash va tartibga solish tizimi ko'p pog'onali (poliyerarxik) tuzilishga ega bo'lib, vertikal va gorizontal boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligidan tashkil topadi. Mazkur tizimning samaradorligini oshirish uchun uning vertikal va gorizontal kesimlari o'zaro bog'liqlikda o'rganilishi va muvofiqlashtirilishi lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida ziyorat turizmini tartibga solish tizimi izchil takomillashib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan ziyorat turizmi bozorini strategik boshqarishning asosiy maqsadi milliy turizm mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, sayyohlar ehtiyojlarini to'liq qondirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi zamonaviy turizm kompleksini shakllantirishdan iboratdir.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. – URL: <https://president.uz/ru/lists/view/3324>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. "Geoaxborot tizimi (GAT) texnologiyasi sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Samarqand: SamDAQI, 22–23-oktabr, 2019. – B. 78.
5. Tuxliyev I., Abduvaliyev A. Innovatsion faoliyatning geoaxborot tizimini turizmga joriy qilish xususiyatlari // Iqtisodiyotda innovatsiya. – 2018. – №2. – B. 38.
6. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish: darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
7. Геоинформатика: учебник для студентов вузов: в 2 кн. Кн. 1 / под ред. В.С. Тикунова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Академия, 2008. – 374 с.
8. Геоинформатика: учебник для студентов вузов: в 2 кн. Кн. 2 / под ред. В.С. Тикунова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Академия, 2008. – 382 с.
9. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R. va boshq. Turizm asoslari: darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014.
10. Garrison U. The Use of Geographic Information Systems (GIS) in Canada's National Parks. – URL: [http://parkscanada.pch.gc.ca/natress/inf\\_pa1/GIS/GIS\\_E.HTM](http://parkscanada.pch.gc.ca/natress/inf_pa1/GIS/GIS_E.HTM)
11. Garrison U. "Amerikanskaya sistema" v "Jacksonovskuyu epoxu" po problemam ekonomicheskogo razvitiya // Severnaya Amerika. Vek XIX. – 30 sentyabr 2016.
12. World Tourism Organization (UNWTO). Travel & Tourism Economic Impact 2021: World Report. – URL: <https://www.unwto.org>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---